


IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2023- yilning yanvar-mart oylarida 1 879 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 55 926 taga yetdi.

2023- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 38 665 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,6 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 439 tasi (105,5 %) – Zangiota, 3 525 tasi – (105,8 %) Qibray, 2 896 tasi – (107,3 %) Toshkent tumanlari hamda 2 330 tasi – (113,0 %) Chirchiq, 2 021 tasi – (107,8 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %da**




2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 1 879 tani tashkil qilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 76 taga yoki 104,2 %ga ko‘paygan..


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar
kesimida soni (yanvar-mart oylarida, birlikda)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
yillar kesimida o'sish dinamikasi
(yanvar-mart oylarida, %da)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar-mart oylarida (jamiga nisbatan %da)**



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 38,0 %i), sanoatda (17,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (11,9 %) sohalarida tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 46,5 %i (2022- yil yanvar-martda 45,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 18 549,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 19,9 %) tashkil qildi;
- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 30 568,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 102,5 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 86,9 %) tashkil qildi;
- 13 308,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 38,1 %i) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 81,5 %ni tashkil qildi;
- 9 111,1 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 75,0 %i) bajarildi va 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,8 %ga oshdi;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga kamaygan, (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 56,1 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 1,4 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,8 %) ko‘paydi;
- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 76,1 %ini yoki 24 098,4 mlrd. so‘mini (o‘sish 106,5 %) kichik biznes korxonalari shakllantirdi;
- xizmatlar umumiy hajmining 68,6 %i yoki 17 845,4 mlrd. so‘mi (o‘sish 108,9 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;
- 616,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 30,1 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 1 719,5 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 48,4 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)
umumiylajmida kichik tadbirdorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**



**Kichik tadbirdorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmat</i>	<i>Savdo</i>	<i>Investitsiya</i>
Jami viloyat	19,9	86,9	75,0	68,6	76,1	38,1
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	26,1	100,0	97,3	29,9	30,3	22,9
Olmaliq	2,1	99,8	15,2	67,3	86,1	3,9
Angren	23,4	97,8	52,1	64,4	61,7	62,8
Bekobod	2,1	99,5	81,4	75,4	87,7	8,5
Ohangaron	28,8	98,5	97,9	74,6	93,4	48,2
Chirchiq	30,9	100,0	89,7	67,0	70,9	23,9
Yangiyo'l	49,9	99,8	79,4	82,6	95,3	72,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	21,9	87,2	99,7	83,2	98,2	63,0
Ohangaron	10,4	85,8	98,3	76,0	97,0	88,6
Bekobod	42,6	84,3	64,9	78,0	93,5	36,4
Bo'stonliq	19,3	93,0	90,3	57,1	68,8	50,3
Bo'ka	31,1	94,3	100,0	83,8	95,4	45,3
Quyi Chirchiq	73,1	51,0	99,1	56,1	96,3	85,3
Zangiota	86,1	91,3	87,8	57,0	63,3	60,5
Yuqori Chirchiq	64,3	96,6	68,5	79,1	93,4	70,3
Qibray	18,9	87,4	79,2	69,8	86,7	42,3
Parkent	86,6	99,6	100,0	79,9	97,4	55,5
Piskent	29,9	79,9	100,0	70,9	90,2	82,8
O'rta Chirchiq	46,2	82,5	96,2	74,2	92,4	70,3
Chinoz	45,0	95,9	97,9	67,7	76,3	73,0
Yangiyo'l	38,8	82,5	73,9	77,6	91,0	58,9
Toshkent	90,6	97,9	100	78,9	64,7	91,1